

ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI  
“ MASHINASOZLIK TEXNOLOGIYASI” FAKULTETI  
“MASHINASOZLIK TEXNOLOGIYASI” KAFEDRASI

DIPLOM LOYIHASI BO’YICHA

**T U S H I N T I R I S H X A T I**

**Diplom loyihasining mavzusi:** “Andijon energota’mir” MCHJ sharoitlari uchun “1160806 Shtok” detalini tayyorlash texnologik jarayonini va operatsiyalarining texnologik ta’minot vositalari konstruktsiyalarini ishlab chiqish.

**Yo’nalish:** Mashinasozlik texnologiyasi, mashinasozlik ishlab chiqarishini jixozlash va avtomatlashtirish

4-kurs 116-14 guruh talabasi:	M.Tojixo’jayev
Kafedra mudiri:	X.Akbarov
Rahbar:	A.Xaydarov
Maslaxatchilar:	
Texnologik qismi:	A.Xaydarov
Konstruktorlik qismi:	A.Xaydarov
Xayot faoliyati xavfsizligi qismi:	P.Toshev
Iqtisodiy qismi:	B.Abdukarimov

Andijon – 2018 yil

ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI

“MASHINASOZLIK TEXNOLOGIYASI” FAKULTETI

“MASHINASOZLIK TEXNOLOGIYASI” KAFEDRASI

DIPLOM LOYIHASINI BAJARISH BO'YICHA

## **T O P S H I R I Q**

**Tojixo'jayev Muzaffarjon Ravshanbek o'g'li**

**1. Diplom loyihasining mavzusi:** “Andijon energota'mir” MCHJ sharoitlari uchun “1160806 Shtok” detalini tayyorlash texnologik jarayonini va operatsiyalarining texnologik ta'minot vositalari konstruktsiyalarini ishlab chiqish.

Institut bo'yicha 2018 yil 17-apreldagi 88-sonli buyruq bilan tasdiqlangan.

**2. Diplom loyihasini bajarish uchun ma'lumotlar:**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari, qarorlari, farmoyishlari, VM qarorlari, ilmiy-texnik adabiyotlar, internet ma'lumotlari, detal ishchi chizmasi, ishlab chiqarish xajmi.

**3. Tushintirish xatida keltiriladigan ma'lumotlar:**

**1) Kirish.** O'zbekistonning rivojlanishda mashinasozlik sanoatining roli ahamiyati, qaror va farmonlar, diplom loyihasining maqsad va vazifalari to'g'risida ma'lumotlar beriladi.

**2) Umumiy qism.** Detalning xizmat vazifasi, ishlab chiqarish turini aniqlash va boshqalar.

**3) Texnologik qism.** Zagatovka olish turini tanlash, texnologik jarayon marshuritini ishlab chiqish, detal konstruktsiyasini texnologiklikka taxlili, zagatovkaga ishlov berishda qo'yim xisobi, kesish maromlarini xisoblash, vaqt me'yorini xisoblash.

**4) Konstruktorlik qismi.** Dastgox moslamasi, kesuvchi asbob va o'lchov vositalarini bayon va xisoblari.

**5) Xayot faoliyati xavfsizligi qismi.** Loyihalananayotgan ishchi joyini mehnat sharoitlarining ta'rifi, ishlab chiqarish joyida yoritish tizimini tanlash, ventilatsiya tizimini tanlash, elektr xavfsizligi, yong'in xavfsizligi, aloqa yong'in signalizatsiya tizimi va boshqalar, mexnat xavfsizligi bo'yicha barcha talablar va qonun qoidalar.

**6) Iqtisodiy qism.** Texnologik jarayonning iqtisodiy samaradorligini aniqlash.

**7) Xulosa.** Bajarilgan diplom loyihasi bo'yicha xulosalar va takliflar yoritiladi.

**8) Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.** Bajarilgan diplom loyihasi bo'yicha foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

**9) Ilovalar.** Spetsifikatsiyalar va texnologik jarayon xujjatlari.

#### 4. Diplom loyihasining chizmalari ro'yhati:

1. Detal chizmasi
2. Zagotovka chizmasi.
3. Texnologik sozlash kartalari.
4. Moslama chizmasi.
5. Kesuvchi asbob chizmasi.
6. O'lchov vositasi yoki uchastka plani.

#### 5. Diplom loyihasi qismlari bo'yicha maslahatchilar:

№	Diplom loyihasining qismlari	Boshlanish muddati	Tugallanish muddati	Imzo	Maslahatchining familiyasi va ismi
1	Texnologik qism	11.01.18	14.04.18		A.Xaydarov
2	Konstruktorlik qismi	14.04.18	10.05.18		A.Xaydarov
3	Xayot faoliyati xavfsizligi qismi	10.05.18	21.05.18		P.Toshev
4	Iqtisodiy qism	10.05.18	21.05.18		B.Abdukarimov

#### 6. Topshiriq berilgan sana :

**11.01.2018**

#### Rahbar:

A.Xaydarov

\_\_\_\_\_  
(imzo)

#### Topshiriq bajarish uchun qabul qilindi

M.Tojixo'jayev

\_\_\_\_\_  
(imzo)

#### Kafedra mudiri

X.Akbarov

\_\_\_\_\_  
(imzo)

## MUNDARIJA

KIRISH .....	5
1. UMUMIY QISM .....	7
1.1. Detalni xizmat vazifasi .....	7
1.2. Ishlab chiqarish turini aniqlash .....	7
1.3. Detal tuzilishining texnologikligi va uning miqdoriy ko'rsatkichlari ....	8
2. TEXNOLOGIK QISM .....	11
2.1. Zagotovka turini tanlash va uni olish usulini aniqlash .....	11
2.2. Texnologik jarayon marshrutini ishlab chiqish .....	12
2.3. Zagatovkaga ishlov berishda qo'yim hisobi .....	13
2.4. Kesish maromlarini hisoblash .....	15
2.5. Vaqt me'yorini xisobi .....	33
3. KONSTRUKTORLIK QISM .....	37
3.1. Dastgoh moslamasini bayoni va hisobi .....	37
3.2. Nazorat moslamasini bayoni va xisobi .....	41
3.3. Kesuvchi asbobni bayoni va hisobi .....	41
4. XAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI .....	44
5. IQTISODIY QISM .....	51
XULOSA .....	57
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI .....	58
ILOVALAR .....	59

## KIRISH

2018-yil O'zbekiston Respublikasida "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab quvvatlash yili" deb e'lon qilingani munosabati bilan 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi qabul qilindi. Shu yildan mashinasozlik sanoatini rivojlantirish bo'yicha yangi qarorlar va dasturlar ishlab chiqilmoqda.

Davlatimizning dunyodagi sanoati rivojlangan mamlakatlaridan o'z o'rnini egalallashda yuqori malakali raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" da ko'rsatilgan asosiy masaladir. Bunday mutaxassislar zamonaviy mashina va jihozlarni ishlab chiqarishni, loyihalashni, avtomatlashtirilgan loyihalash tizimlaridan foydalanishni, raqamli dastur bilan boshqariladigan dastgohlar asosida yuqori unumdorlikdagi moslanuvchan ishlab chiqarish modullarni va avtomatlashtirilgan ishlab chiqarishni har tomonlama bilishlari va ulardan foydalana olishlari kerak. Shuning uchun bitiruv malakaviy ishi zamonaviy mashina va jihozlarni ishlab chiqarishni samaradorligini oshirish maqsadida ilg'or texnika va yuqori texnologiyalardan foydalangan holda bajarilishi kerak.

Jamiyatning moddiy texnika bazasini yaratuvchi va mamlakatimizning texnik taraqqiyotini rivojlanishini belgilovchi soha mashinasozlikdir. U sanoatning turli tarmoqlarini yangi texnika, ishlab chiqarish vositalari bilan ta'minlaydi. Shu sababli mashinasozlik ishlab chiqarishning barcha sohalarini rivojlanishiga katta tahsir ko'rsatuvchi sanoatning muhim ko'rsatkichlaridan biridir.

Mashinasozlikning asosini mashinalarni loyixalash va ishlab chiqarish tashkil etadi. Mashinalar o'z navbatida jamiyat turmush farovonligini ko'rsatadi. Ular ish unumdorligini, mehnat samaradorligini va mahsulot sifatini oshiradilar.

Mustaqillikning boshlang'ich davridayoq, mamlakatimizda mashinasozlikni rivojlantirishga asosiy e'tibor qaratildi. Ko'plab qo'shma korxonalari mashinasozlik mahsulotlarini ishlab chiqara boshladi.

Mustaqil O'zbekiston Respublikamiz mashinasozligi oldida yaqin yillarda mo'ljallagan ulkan va ma'suliyatli vazifalar turibdi. Bular jumladan xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida yuqori darajasida ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lgan energiya va metalni iqtisod qilish texnologiyalarini keng qo'llash, mashinasozlik mahsulotlarini texnik darajasini va sifatini oshirish, zararli va og'ir qo'l mehnatini yengillashtiruvchi mashina va jixozlarni chiqarish, materiallarga ishlov berish dastgohlari sifatini yaxshilash.

## 1. UMUMIY QISM.

### 1.1 Detalni xizmat vazifasi.

Shtoklar turli xil pnevmaik va gidravlik mexanizmlarda silindrdagi porshen xarakatini ishchi detal yoki organga uzatish uchun xizmat qiladi. Menga berilgan "Shtok" detali materiyali Сталь 45 GOST 1050-88, og'irligi  $m=0,232$  kg..

Detalning asosiy yuzasi D yuza bo'lib, yuza g'adir-budirligi Ra 0.4 mkm, o'lcham aniqligi bo'yicha 7 kv dadir. E1 va E2 yuzalar uchun Ra 6.3. Qolgan yuzalar uchun aniqlik Ra 12.5.

Сталь 45 ning kimyoviy tarkibi (GOST 1050-88),

1.1-jadval

Po'lat markasi	S	S <sub>i</sub>	M <sub>n</sub>
Сталь 45	0.42÷0.49	0.17÷0.37	0.5÷0.8

Сталь 45 ning mexanik xossalari

1.2-jadval

Po'lat markasi	Mexanik xossalari					
	v <sub>g</sub> , kg/mm <sup>2</sup>	G <sub>ots</sub> , kg/mm <sup>2</sup>	δ <sub>s</sub> , %	Ψ, %	d <sub>n</sub> , kg/mm <sup>2</sup>	HB
Сталь 45	64–76	36	17	40	8	197

### 1.2. Ishlab chiqarish turini aniqlash.

Har bir mashinasozlik korxonasi bir yil davomida ishlab chiqarishga kerak bo'lgan mahsulot va zaxira qismlarining ma'lumotiga ega. Bu ma'lumot ishlab chiqarish dasturi deb ataladi va unda ma'lumotni turi, soni, o'lchami va materiali to'g'risida ham etarlicha axborot bor. Korxonaning umumiy ishlab chiqarish dasturiga asosanssexlar bo'yicha ishlab chiqarish dasturi tuziladi. Har bir mahsulot umumiy ko'rinishining chizmasi, detallarning ishchi chizmasi, yig'uv chizma, spetsifikatsiyalar va texnik talablar bilan boyitiladi.

Ishlab chiqarish dasturining xajmi, mahsulot tasnifi, jarayonning texnik va iqtisodiy shartlariga asosan shartli ravishda uchta ishlab chiqarish turi mavjud: donali, seriyali, yalpi. Har bir ishlab chiqarish turi o'ziga xos tashkiliy shaklga ega. Shuni aytish kerakki, bitta korxonada xar-hil ishlab chiqarish turlari bo'lishi mumkin.

Ishlab chiqarish turi va unga to'g'ri keladigan ishni tashkil qilish shakli texnologik jarayonni tasnifini hamda uning tuzilishini aniqlaydi. SHuning uchun ham ishlab chiqarish turini aniqlash detalga mexanik ishlov berish texnologik jarayonni loyixalashni boshlang'ich asosiy bosqichidir. Ishlab chiqarish turini jadvallar usuli bilan aniqlaganda detalning og'irligi va yillik ishlab chiqarish dasturi talab qilinadi.

Bunda  $N=5000$  dona va  $m=0,232$  kg bo'lganda ([5],2j,18b) ishlab chiqarish turi kichik seriyali deb aytishimiz mumkin.

Berilgan yillik dasturga asosan ishlab chiqarish qadamini quyidagi ifoda yordamida hisoblanadi.

$$t_b = \frac{F_g \cdot 60}{N} = \frac{4029 \cdot 60}{5000} = 48,3 \frac{\text{dak}}{\text{дона}}$$

bu erda:  $F_g = 4029 \text{ soam}$  – dastgohlarni bir yillik haqiqiy ishlash vaqti fondi;  $N=5000$  dona – yillik ishlab chiqarish dasturi.

Bo'limdagi ish tartibi 2 smenali. Seriyali ishlab chiqarish turida detallarni partiyalarga bo'lib ishlov berish sababli partiyadagi detallar sonini hisoblab topish talab qilinadi.

$$n = \frac{N \cdot a}{F} = \frac{5000 \cdot 3}{254} = 59 \text{ dona}$$

bu erda:  $a=3,6,12,24$  kun – partiyadagi detallarni ishlov berishga kiritilish davri;  $F=254$  kun – bir yildagi ishchi kunlar soni.

### **1.3. Detal tuzilishining texnologikligi va uning miqdoriy ko'rsatkichlari**

Ishlab chiqarish ob'ekti bo'lgan mahsulot konstruksiyasini texnologikligi quyidagi nuqtai nazarlar bo'yicha taxlil qilinadi: qo'llaniladigan materialning



ko‘rinishi va turi, xom–ashyoni ko‘rinishi va tayyorlash uslublari, qo‘llaniladigan ishlov berish yig‘ish tayyorlash korxonasidan tashqarida montaj qilish va sinashni texnologik usullari va ko‘rinishlari, progressiv texnologik jarayonlar, shuningdek kam mehnat va energiya sarflanadigan, chiqindisiz tipaviy texnologik jarayonlardan foydalanganlik darajasi, jarayonlarni mexanizatsiyalash, avtomatlashtirish imkoniyati, unifikatsiyalangan yig‘ish birikmalari va detallarni qo‘llash darajasi, tayyorlovchi korxonani o‘ziga xos xususiyatlari, talab qilingan ishchilar klafikatsiyalari.

Detalning ishchi chizmasini taxlil qilish shuni ko‘rsatadiki detalni ishchi vazifasini o‘zgartirmagan holda uni tuzilishi elementlarini qisqartirish imkoniyati yo‘q. Detal tuzilishi xom–shayo olishni ratsional usullaridan foydalanish imkoniyatini beradi. Ishlov berishda qiyinchilik tug‘diradigan va maqsadga muvofiq bo‘lmagan yuzalar aniqlanadi. Zagotovka tuzilishi va mustaxkamligi va uni unumdorligini yuqori bo‘lgan ishlov berish usullaridan foydalanishni chegaralanmaydi. Materialni ishlov beriluvchanligi tig‘li va obraziv asboblardan foydalanishga imkon beradi. Texnologiklik va aniqlik bo‘yicha taxlil texnologik jarayon marshrutini tuzish dastgohlarni nazorat ishlarini aniqlashga negiz bo‘lib qoladi.

Detal konstrutsiyasini texnologikligi — konstrutsiyasini shunday xossalari yig‘indisiki bunda bir xil sifat ko‘rsatkichlariga ega bo‘lgan bir xil sharoitda tayyorlangan va ekspluatatsiya qilinadigan o‘xshash konstruksiyasiga ega bo‘lgan maxsulotga nisbatan yanada samarador texnologiyalar bilan ishlov berish, ta‘mirlash va texnik xizmat ko‘rsatish imkoniyatini beradi.

Detalni texnologilikka taxlil qilish ishlab chiqarishni texnologik tayyorlashni muxim masalasidir.

Bajarilgan taxlil quyidagi koeffitsentlarni aniqlashga imkon beradi.  
Konstruktiv elementlarni unifikatsiyalanganlik koeffitsenti.

$$K_{y.3} = \frac{Q_{y.3}}{Q_3}$$

bu erda:

$Q_{y.e}$  va  $Q_e$  unifikatsiyalangan konstruktiv elementlar soni va detalni hamma elementlar soni

$$K_{m.9} = \frac{Q_{y.9}}{Q_9} = \frac{2}{8} = 0.25$$

Ishlov berish aniqligi koeffitsenti.

$$K_a = 1 - \frac{1}{A_{yp}}$$

bu erda:

$$A_{yp} = \frac{(n_1 + 2n_2 + 3n_3 + \dots + 19n_{19})}{\sum_1^{19} n_i} = \frac{7 \cdot 1 + 9 \cdot 2 + 11 \cdot 5}{8} = 10$$

$$K_a = 1 - \frac{1}{A_{yp}} = 1 - \frac{1}{10} = 0.9$$

YUzalar g'adir–budurlik koeffitsenti.

$$K_u = \frac{1}{III_{yp}}$$

bu erda:

$$III_{yp} = \frac{(0.01n_1 + 0.02n_2 + \dots + 40n_{13} + 80n_{14})}{\sum_1^{14} n_i} = \frac{0.4 \cdot 1 + 6.3 \cdot 2 + 12.5 \cdot 5}{8} = 9.4$$

$$K_u = 1 - \frac{1}{III_{yp}} = 1 - \frac{1}{9.4} = 0.89$$

Bajarilgan taxlil yig'uv birikmaning berilgan detalni to'g'ri loyixalashga imkon beradi

## **2. TEXNOLOGIK QISM**

### **2.1. Zagotovka turini tanlash va uni olish usulini aniqlash**

Zagotovkalar toza va xomaki zagotovkalarga bo'linadi. Toza zagotovka deganda tayyorlangandan keyin kesib ishlanmaydigan, o'lchamlari va tozaligi tayyor detal chizmasida ko'rsatilgan o'lcham va tozalikka to'g'ri keladigan zagotovkalar tushuniladi. Xomaki zagotovkalar chizma talablariga muvofiq keladigan o'lcham, aniqlik va tozalikdagi detal hosil qilish maqsadida qo'yim kesib olish uchun mexanik ishlanishi zarur bo'lgan zagotovkalardir.

Mashina detallari uchun zagotovkalar asosan quyidagi usullar bilan tayyorlanadi:

- qora va rangli metallardan quyish yo'li bilan;
- bosim bilan ishlash (bolg'alash va shtamplash) orqali;
- qora va rangli metallar prokatidan;
- metallokeramikadan (kukun metallurgiyasi yo'li bilan);
- payvandlash – zagotovka qismlarini bir butun qilib ulash yo'li bilan;
- metallmas materiallardan (plastik massalar va boshqalardan).

Zagotovka olish usulini tanlash, detalni o'lcham va materiali, ishchi vazifasi, uni tayyorlashga texnik talablar, yillik dastur va umumiy tuzilishi kabi omillar belgilab beradi. Bu masalani xal qilishda zagotovka o'lchami va tuzilishi detalni o'lcham va tuzilishiga maksimal yaqin bo'lishini ta'minlash kerak. Lekin shuni unutmaslik kerakki, zagotovka aniqligini oshirish va tuzilishini murakkablashtirish uni tannarxini oshishiga olib keladi. Shuning uchun ham zagotovka olishni optimal usuli zagotovka tannarxi kam bo'lgandagi usulidir.

Zagotovka olishni mavjud usullarini tahlil qilib, berilgan ishlab chiqarish sharoitida detalimiz uchun zagotovkani prokatlash yo'li bilan olamiz.

## 2.2. Texnologik jarayon marshrutini ishlab chiqish

2.1-jadval

Operatsiya №	O'tishlar №	Operatsiya va o'tishlar nomi va mohiyati.	Kesish dastgohi nomi	Moslama turi	Kesuvchi asbob nomi	O'lchov asbobi
1	2	3	4	5	6	7
005		Tokarlik A o'rnatish	Tokorlik revolver 1П365	Uch kulachokli patron		Shtan gen sirkul (Shs 126)
	1	A torets yuza yo'nilsin.			O'tuvchi keskich (ГОСТ 18868-73)	
	2	C yuza qora yo'nilsin.			O'tuvchi keskich (ГОСТ 18868-73)	
	3	C yuza toza yo'nilsin.			O'tuvchi keskich (ГОСТ 18868-73)	
	4	A yuzada faska ochilsin			Faska ochuvchi keskich	
		B o'rnatish	Tokorlik revolver 1П365	Uch kulachokli patron		Shtan gen sirkul (Shs 126)
	1	B yuza yo'nilsin			O'tuvchi keskich (ГОСТ 18868-73)	
	2	D yuza qora yo'nilsin.			Konturli keskich (ГОСТ 18883-73)	
	3	D yuza toza yo'nilsin.			Konturli keskich (ГОСТ 18883-73)	
	5	B yuzada faska yo'nilsin			Faaska ochuvchi keskich	
010		Vertikal frezalash	Vertikal frezalash dastgohi 6H12ПБ	Mahsus moslama		Shtan gen sirkul (Shs 126)
	1	G shponka ariqchasi ochilsin			Barmoq freza	
015		Vertikal frezalash	Vertikal frezalash dastgohi 6H12ПБ	Mahsus moslama		Shtan gen sirkul (Shs 126)
	1	E1 yuza frezalansin			Torets freza	
	2	E2 yuza frezalansin			Torets freza	
020		Vertikal parmalash	Vertikal parmalash	Maxsus tiski		
	1	F teshik parmalansin			Parma Ø12 P6M5	

			dastgohi 2A135		(ГОСТ 12122-77)	
025		Doiraviy jilvirlash	Doiraviy jilvirlash dastgohi model 3150	Uch kulachok li patron	Jilvir tosh (ГОСТ 12123-71)	ShS MS
	1	D yuza jilvirlansin				

### 2.3. Zagatovkaga ishlov berishda qo'yim hisobi

1. Diametri Ø20 h7 bo'lgan D yuza uchun qo'yim miqdorini hisoblaymiz. Zagotovka prokat usuli bilan olingan. A yuza ishlov berish texnologik marshruti qora va toza yo'nishdan hamda jilvirlashdan iborat.

Aylanuvchi detallarga ishlov berishda qo'yimlarni aniqlash quyidagi formula yordamida topiladi [7, 37 b.]:

$$2z_{i_{min}} = 2(R_{z_{i-1}} + T_{i-1} + \sqrt{\rho_{i-1}^2 + \varepsilon_i^2}),$$

Zagotovka uchun profilning notekisliklari balandligi  $R$  va sirt qatlamdagi nuqsonlar chuqurligini  $T$  jadvaldan olamiz:

- 1) zagotovka uchun:  $R=150$  mkm;  $T=150$  mkm [7, 7 b.];
- 2) qora yo'nish uchun:  $R=120$  mkm;  $T=120$  mkm [7, 9 b.];
- 3) toza yo'nish uchun:  $R=30$  mkm ;  $T=30$  mkm [7, 9 b.];
- 4) jilvirlash uchun:  $R=10$  mkm ;  $T=15$  mkm [7, 9 b.];

Dopusklar miqdori:

- zagotovka uchun  $\delta=112$  mkm;
- qora yo'nish uchun  $\delta=52$  mkm;
- toza yo'nish uchun  $\delta=34$  mkm;
- Jilvirlash uchun  $\delta=17$  mkm;

Fazoviy chetlanishlarning umumiy yig'indisi sortli prokatlarni yo'nish jarayoni quyidagi formula yordamida topiladi:

$$\rho_z = \rho_k = \Delta_{kr} l = 12 \cdot 108 = 1296 \text{ mkm};$$

$$\Delta_{kr} = 12 \text{ mkm} [7, 16 \text{ b.}]$$

Qoldiq fazoviy chetlanishlar:

- qora yoʻnishdan soʻng  $\rho_1=0,6 \cdot 1296=777$  mkm;
- toza yoʻnishdan soʻng  $\rho_1=0,6 \cdot 777=466$  mkm;
- jilvirlashdan soʻng  $\rho_1=0,6 \cdot 466=279$  mkm;

$$\varepsilon_i = \sqrt{\varepsilon_6^2 + \varepsilon_3^2}$$

$$\varepsilon_6 = 0;$$

$$\varepsilon_3 = 600 \text{ mkm. [4, 23 b.]}$$

$$\varepsilon_i = \sqrt{0^2 + 600^2} = 600 \text{ mkm}$$

- qora yoʻnishdan soʻng  $\varepsilon_1=0,05 \cdot 600=30$  mkm;
- toza yoʻnishdan soʻng  $\varepsilon_2=0,05 \cdot 30=1,5$  mkm;
- jilvirlash uchun  $\varepsilon_3=0,05 \cdot 1,5=0,075$  mkm;

Qoʻyimlarning minimal miqdorini hisoblaymiz:

$$\text{- qora yoʻnish } 2z_{min_3} = 2(150 + 150 + \sqrt{777^2 + 30^2}) = 2155 \text{ mkm}$$

$$\text{- toza yoʻnish } 2z_{min_3} = 2(120 + 120 + \sqrt{466^2 + 1,5}) = 1400 \text{ mkm}$$

$$\text{- jilvirlash } 2z_{min_3} = 2(30 + 30 + \sqrt{279^2 + 0,075^2}) = 678 \text{ mkm}$$

Zagotovkaning hisobiy oʻlchamlarini aniqlaymiz:

2.2-jadval

Texnologik ishlov berish	Qoʻyim elementlari, mkm				$2z_{min}$	$d_h$ , mm	Dopusk $\delta$ , mkm	CHegaraviy oʻlcham, mm		Qoʻyimlar chegarasi, mkm	
	$R_z$	$T$	$\rho$	E				$d_{min}$	$d_{max}$	$2z_{min}^{ch}$	$2z_{max}^{ch}$
Zagotovka prokat	150	150	1440	600		24,628	112	24,516	24,74		
Qora yoʻnish	120	120	864	140	2,55	22,078	52	22,026	22,13	2490	2610
Toza yoʻnish	30	39	518	1,5	1,4	20,678	34	20,644	20,712	1382	1418
					0,678	20	17	19,983	20,017	661	695

Quyimlarning eng katta va eng kichik qiymatlari yig'indisini aniqlaymiz:

$$2z_{min}^{ch} = 4533 \text{ mkm}; 2z_{max}^{ch} = 4723 \text{ mkm}.$$

Hisoblar to'g'riligini tekshiramiz.

$$2z_{max}^{ch} - 2z_{min}^{ch} = \delta_z - \delta_d$$

$$4723 - 4533 = (112 - 17) \cdot 2$$

$$190 = 95 \cdot 2$$

**Jadval usuli bilan mexanik ishlov berish uchun qoldirilgan qo'yim miqdorini hisobi (hamma qolgan yuzalar uchun).** [7, 178 b, 7.28 jad.]

2.3-jadval

Ishlov beriladigan yuza	O'lcham	Qo'yim		Chetlanish, MM
		Jadval, mm	Hisobiy, mm	
A va B	108 h14	1.5	3	+0.4 -0.4

## 2.4. Kesish maromlarini hisoblash

### 005. Tokarlik operatsiyasi.

#### A o'rnatish.

**1-o'tish.** A torets yuzani  $D=25\text{mm}$ ,  $l=109.5\text{mm}$  uzunlikni ushlab yo'nilsin.

Dastgoh: Tokorlik revolver 1П365. Ishlov berishga qoldirilgan qo'yim miqdori  $h=1,5 \text{ mm}$ . Zagotovka materiali Сталь 45.

Kesuvchi asbob : Tokorlik o'tuvchi keskich , kesuvchi qismi materiyali T15K6, keskich tanasi materiyali Polat 40, ko'ndalang kesim yuzasi  $16 \times 25 \text{ mm}$ ,  $l=160 \text{ mm}$

Geometrik elementlari:

$$\gamma = 10^\circ ; \alpha = 12^\circ ; \lambda = 0, \varphi = 45^\circ, \varphi_1 = 45^\circ, r=1 \text{ mm}$$

Kesish maromini belgilaymiz.

1.Kesish chuqurligini belgilaymiz.  $t=h=1.5 \text{ mm}$ .

2.Surish qiymatini aniqlaymiz.

$$S_0=0.4-0.5 \text{ mm/ayl. ([3], 2.13-j, 42-b)}$$

Dastgoh pasporti bo'yicha korektirovkalab  $S_o=0.5$  mm/ayl ni qabul qilamiz.

3.Kesishda asosiy harakat tezligini aniqlaymiz.

$$v = \frac{C_v}{T^m \cdot t^x \cdot S^y} \cdot K_v$$

T-keskich turg'unlik davri,  $T=30\dots60$  daqiqa ([3], 46-b)

$T=60$  daqiqa qabul qilamiz

Formuladagi koeffitsentlar va daraja ko'rsatkichlarini yozib olamiz.

$C_v=350$ ,  $x=0.15$ ,  $y=0.35$ ,  $m=0.20$  ([3], 2.19-j, 46-b)

To'g'rilash koeffitsientlarini e'tiborga olamiz.

$$K_v = K_{mv} \cdot K_{nv} \cdot K_{uv}$$

$K_{mv}$ - ishlov berilayotgan materialni xisobga oluvchi koeffitsent;

$$K_{mv} = K_f \left( \frac{750}{\sigma_B} \right)^{n_v} \quad ([3], 2.1-j, 34-b)$$

$n_v=1$ ;  $K_f=1$  ([3], 2.2-j, 35-b)

$$K_{mv} = 1 \cdot \left( \frac{750}{598} \right)^1 = 1.25$$

$K_{nv}$ - Ishlov berilayotgan yuza xolatini xisobga oluvchi koeffitsient;

$K_{nv}=0.9$  ([3], 2.5-j, 37-b)

$K_{uv}$ - Kesuvchi asbob kesuvchi qismi materialini xisobga oluvchi koeffitsient;

$K_{uv} = 1$  ([3], 2.6-j, 37-b)

$$K_v = 1.25 \cdot 0.9 \cdot 1 = 1.125$$

$$V = \frac{350}{60^{0.20} \cdot 1.5^{0.15} \cdot 0.5^{0.35}} \cdot 1.125 = 208m / daq$$

4.Shpindelni aylanishlar chastotasini hisoblaymiz.

$$n = \frac{1000V}{\pi D} = \frac{1000 \cdot 208}{3.14 \cdot 25} = 2652 daq^{-1}$$

Dastgoh pasporti bo'yicha korektirovka qilib xaqiqiy aylanishlar chastotasi  $n=1500 daq^{-1}$  ni qabul qilamiz.

5.Kesish jarayonida asosiy harakatning haqiqiy tezligi:



$$V_{xaq} = \frac{\pi D n}{1000} = \frac{3.14 \cdot 25 \cdot 1500}{1000} = 117 \text{ m/daq}$$

6. Kesish kuchi  $P_z$  ni quyidagi formuladan hisoblab topamiz:

$$P_z = 10 \cdot C_p \cdot t^x \cdot S^y \cdot v^n \cdot K_p$$

Mavjud ishlov berish sharoiti uchun:

$$C_p=300, x=1, y=0.75, n=-0.15 \quad ([3], 2.24-j, 50-b)$$

Kesish kuchidagi to'g'rilash koeffitsienti

$$K_p = K_{mp} \cdot K_{\phi p} \cdot K_{\gamma p} \cdot K_{\lambda p} \cdot K_{rp}$$

$K_{mp}$ - ishlov berilayotgan materialni xisobga oluvchi koeffitsent;

$$K_{mp} = \left( \frac{\sigma_B}{750} \right)^n \quad n=0.75 \quad ([3], 2.9-j, 38-b)$$

$$K_{mp} = \left( \frac{598}{750} \right)^{0.75} = 0.55$$

$$K_{\phi p}=1, K_{\gamma p}=1, K_{\lambda p}=1, K_{rp}=0.1 \quad ([3], 2.25-j, 52-b)$$

$$K_p = 0.55 \cdot 1 \cdot 1 \cdot 1 \cdot 1 = 0.55$$

$$P_z = 10 \cdot 300 \cdot 1.5^1 \cdot 0.5^{0.75} \cdot 117^{-0.15} \cdot 0.55 = 719 \text{ N}$$

7. Kesish uchun sarflangan quvvat:

$$N_{kes} = \frac{P_z \cdot V_{xaq}}{60 \cdot 1020}; \text{ kVt}$$

$$N_{kes} = \frac{719 \cdot 117}{60 \cdot 1020} = 1.3 \text{ kVt}$$

8. Dastgoh yuritmasi quvvati yetarli ekanligini tekshiramiz:

$$N_{shp} = N_d \cdot \eta = 14 \cdot 0.75 = 10.5 \text{ kvt};$$

$$N_{kes} \leq N_{shp}, 1.3 \leq 10.5, \text{ yani ishlov berish mumkin.}$$

9. Asosiy vaqtni hisoblaymiz.

$$T_a = \frac{L \cdot i}{n \cdot S}$$

Keskichni ishchi yurish uzunligi  $L=1+y+\Delta$ , bu yerda:  $y=1$  mm keskichni botishi,

$\Delta=2$  mm keskichni chiqishi,  $l=109.5$ ,  $i=1$  o'tishlar soni,  $L=109.5+1+2 =112.5$  mm

$$T_a = \frac{112.5 \cdot 1}{1500 \cdot 0.5} = 0,15 \text{ daq}$$

**2-o'tish.** C yuzani  $\varnothing 20$ mm,  $l=18$ mm uzunlikni ushlab qora yo'nilsin.

Ishlov berishga qoldirilgan qo'yim miqdori  $h=4.5$  mm.

Kesuvchi asbob : o'tuvchi keskichi , kesuvchi qismi materiyali T15K6, keskich tanasi materiyali Polat 40, ko'ndalang kesim yuzasi  $16 \times 25$  mm,  $l=160$  mm

Geometrik elementlari:

$$\gamma = 10^0 ; \alpha = 12^0 ; \lambda = 0, \varphi = 45^0, \varphi_1 = 45^0, r=1 \text{ mm}$$

Kesish maromini belgilaymiz.

1.Kesish chuqurligini belgilaymiz.  $t=1.5$  mm.

2.Surish qiymatini aniqlaymiz.

$$S_o=0.4-0.5 \text{ mm/ayl. ([3], 2.13-j, 42-b)}$$

Dastgoh pasporti bo'yicha korektirovkalab  $S_o=0.5$  mm/ayl ni qabul qilamiz.

3.Kesishda asosiy harakat tezligini aniqlaymiz.

$$v = \frac{C_v}{T^m \cdot t^x \cdot S^y} \cdot K_v$$

T-keskich turg'unlik davri,  $T=30 \dots 60$  daqiqa ([3], 46-b)

$T=60$  daqiqa qabul qilamiz

Formuladagi koeffitsentlar va daraja ko'rsatkichlarini yozib olamiz.

$$C_v=350, x=0.15, y=0.35, m=0.20 \text{ ([3], 2.19-j, 46-b)}$$

To'g'rilash koeffitsientlarini e'tiborga olamiz.

$$K_v=1.125$$

$$V = \frac{350}{60^{0.20} \cdot 1.5^{0.15} \cdot 0.5^{0.35}} \cdot 1.125 = 208 \text{ m/daq}$$

4.Shpindelni aylanishlar chastotasini hisoblaymiz.

$$n = \frac{1000V}{\pi D} = \frac{1000 \cdot 208}{3.14 \cdot 20} = 3315 \text{ daq}^{-1}$$

Dastgoh pasporti bo'yicha korektirovka qilib xaqiqiy aylanishlar chastotasi  $n=1500$  daq<sup>-1</sup> ni qabul qilamiz.

5. Kesish jarayonida asosiy harakatning haqiqiy tezligi:

$$V_{xaq} = \frac{\pi D n}{1000} = \frac{3.14 \cdot 20 \cdot 1500}{1000} = 94.2 \text{ m/daq}$$

6. Kesish kuchi  $P_z$  ni quyidagi formuladan hisoblab topamiz:

$$P_z = 10 \cdot C_p \cdot t^x \cdot S^y \cdot v^n \cdot K_p$$

Mavjud ishlov berish sharoiti uchun:

$C_p=300$ ,  $x=1$ ,  $y=0.75$ ,  $n=-0.15$  ([3], 2.24-j, 50-b)

Kesish kuchidagi to'g'rilash koeffitsienti

$$K_p=0.55$$

$$P_z = 10 \cdot 300 \cdot 1.5^1 \cdot 0.5^{0.75} \cdot 94.2^{-0.15} \cdot 0.55 = 744 \text{ N}$$

7. Kesish uchun sarflangan quvvat:

$$N_{kes} = \frac{P_z \cdot V_{xaq}}{60 \cdot 1020}; \text{ kVt}$$

$$N_{kes} = \frac{744 \cdot 94.2}{60 \cdot 1020} = 1.14 \text{ kVt}$$

8. Dastgoh yuritmasi quvvati yetarli ekanligini tekshiramiz:

$$N_{shp} = N_d \cdot \eta = 14 \cdot 0.75 = 10.5 \text{ kvt};$$

$N_{kes} \leq N_{shp}$ ,  $1.14 \leq 10.5$ , yani ishlov berish mumkin.

9. Asosiy vaqtni hisoblaymiz.

$$T_a = \frac{L \cdot i}{n \cdot S}$$

Keskichni ishchi yurish uzunligi  $L=l+y+\Delta$ , bu yerda:  $y=1$  mm keskichni botishi,

$\Delta=2$  mm keskichni chiqishi,  $l=20$ ,  $i=3$  o'tishlar soni,  $L=20+1+2=23$  mm

$$T_a = \frac{23 \cdot 3}{1500 \cdot 0.5} = 0.084 \text{ daq}$$

**3-o'tish.** C yuzani  $\emptyset 19$ mm,  $l=18$ mm uzunlikni ushlab toza yo'nilsin.

Ishlov berishga qoldirilgan qo'yim miqdori  $h=0.75$  mm.

Kesuvchi asbob : o'tuvchi keskichi , kesuvchi qismi materiyali T15K6, keskich tanasi materiyali Polat 40, ko'ndalang kesim yuzasi  $16 \times 25$  mm,  $l=160$  mm

Geometrik elementlari:

$$\gamma = 10^0 ; \alpha = 12^0 ; \lambda = 0 , \varphi = 45^0 , \varphi_1 = 45^0 , r=1 \text{ mm}$$

Kesish maromini belgilaymiz.

1.Kesish chuqurligini belgilaymiz.  $t=h=0.75$  mm.

2.Surish qiymatini aniqlaymiz.

$$S_0=0.4-0.5 \text{ mm/ayl. ([3], 2.13-j, 42-b)}$$

Dastgoh pasporti bo'yicha korektirovkalab  $S_0=0.5$  mm/ayl ni qabul qilamiz.

3.Kesishda asosiy harakat tezligini aniqlaymiz.

$$v = \frac{C_v}{T^m \cdot t^x \cdot S^y} \cdot K_v$$

T-keskich turg'unlik davri,  $T=30 \dots 60$  daqiqa ([3], 46-b)

$T=60$  daqiqa qabul qilamiz

Formuladagi koeffitsentlar va daraja ko'rsatkichlarini yozib olamiz.

$$C_v=350, x=0.15, y=0.35, m=0.20 \text{ ([3], 2.19-j, 46-b)}$$

To'g'rilash koeffitsientlarini e'tiborga olamiz.

$$K_v=1.125$$

$$V = \frac{350}{60^{0.20} \cdot 0.75^{0.15} \cdot 0.5^{0.35}} \cdot 1.125 = 231 \text{ m/daq}$$

4.Shpindelni aylanishlar chastotasini hisoblaymiz.

$$n = \frac{1000V}{\pi D} = \frac{1000 \cdot 231}{3.14 \cdot 19} = 3872 \text{ daq}^{-1}$$

Dastgoh pasporti bo'yicha korektirovka qilib xaqiqiy aylanishlar chastotasi  $n=1500$   $\text{daq}^{-1}$  ni qabul qilamiz.

5.Kesish jarayonida asosiy harakatning haqiqiy tezligi:

$$V_{xaq} = \frac{\pi D n}{1000} = \frac{3.14 \cdot 19 \cdot 1500}{1000} = 89 \text{ m/daq}$$

6. Kesish kuchi  $P_z$  ni quyidagi formuladan hisoblab topamiz:

$$P_z = 10 \cdot C_p \cdot t^x \cdot S^y \cdot v^n \cdot K_p$$

Mavjud ishlov berish sharoiti uchun:

$$C_p=300, x=1, y=0.75, n=-0.15 \quad ([3], 2.24-j, 50-b)$$

Kesish kuchidagi to'g'rilash koeffitsienti

$$K_p=0.55$$

$$P_z=10 \cdot 300 \cdot 0.75^1 \cdot 0.5^{0.75} \cdot 89.49^{-0.15} \cdot 0.55=374 \text{ N}$$

7. Kesish uchun sarflangan quvvat:

$$N_{kes} = \frac{P_z \cdot V_{xaq}}{60 \cdot 1020}; \text{ kVt}$$

$$N_{kes} = \frac{374 \cdot 89.49}{60 \cdot 1020} = 0.54 \text{ kVt}$$

8. Dastgoh yuritmasi quvvati yetarli ekanligini tekshiramiz:

$$N_{shp}=N_d \cdot \eta=14 \cdot 0.75=10.5 \text{ kvt};$$

$$N_{kes} \leq N_{shp}, 0.54 \leq 10.5, \text{ yani ishlov berish mumkin.}$$

9. Asosiy vaqtni hisoblaymiz.

$$T_a = \frac{L \cdot i}{n \cdot S}$$

Keskichni ishchi yurish uzunligi  $L=l+y+\Delta$ , bu yerda:  $y=1$  mm keskichni botishi,

$\Delta=2$  mm keskichni chiqishi,  $l=19$ ,  $i=1$  o'tishlar soni,  $L=19+1+2=22$  mm

$$T_a = \frac{22 \cdot 1}{1500 \cdot 0.5} = 0,028 \text{ daq}$$

## B o'rnatish

**1-o'tish qiymatlari A o'rnatish 1- o'tish qiymatlariga teng deb olinsin.**

**2-o'tish.** D yuzani  $\text{\O}22$ mm,  $l=90$ mm uzunlikni ushlab qora yo'nilsin.

Ishlov berishga qoldirilgan qo'yim miqdori  $h=1.5$ mm.

Kesuvchi asbob : o'tuvchi keskichi , kesuvchi qismi materiyali T15K6, keskich tanasi materiyali Polat 40, ko'ndalang kesim yuzasi  $16 \times 25$  mm,  $l=160$  mm

Geometrik elementlari:

$$\gamma = 10^0; \alpha = 12^0; \lambda = 0, \varphi = 45^0, \varphi_1 = 45^0, r = 1 \text{ mm}$$

Kesish maromini belgilaymiz.

1. Kesish chuqurligini belgilaymiz.  $t = 1.5 \text{ mm}$ .

2. Surish qiymatini aniqlaymiz.

$$S_0 = 0.4 - 0.5 \text{ mm/ayl. ([3], 2.13-j, 42-b)}$$

Dastgoh pasporti bo'yicha korektirovkalab  $S_0 = 0.5 \text{ mm/ayl}$  ni qabul qilamiz.

3. Kesishda asosiy harakat tezligini aniqlaymiz.

$$v = \frac{C_v}{T^m \cdot t^x \cdot S^y} \cdot K_v$$

T-keskich turg'unlik davri,  $T = 30 \dots 60 \text{ daqiqa}$  ([3], 46-b)

$T = 60 \text{ daqiqa}$  qabul qilamiz

Formuladagi koeffitsentlar va daraja ko'rsatkichlarini yozib olamiz.

$$C_v = 350, x = 0.15, y = 0.35, m = 0.20 \text{ ([3], 2.19-j, 46-b)}$$

To'g'rilash koeffitsientlarini e'tiborga olamiz.

$$K_v = 1.125$$

$$V = \frac{350}{60^{0.20} \cdot 1.5^{0.15} \cdot 0.5^{0.35}} \cdot 1.125 = 208 \text{ m/daq}$$

4. Shpindelni aylanishlar chastotasini hisoblaymiz.

$$n = \frac{1000V}{\pi D} = \frac{1000 \cdot 208}{3.14 \cdot 22} = 3014 \text{ daq}^{-1}$$

Dastgoh pasporti bo'yicha korektirovka qilib haqiqiy aylanishlar chastotasi  $n = 1500 \text{ daq}^{-1}$  ni qabul qilamiz.

5. Kesish jarayonida asosiy harakatning haqiqiy tezligi:

$$V_{xaq} = \frac{\pi D n}{1000} = \frac{3.14 \cdot 22 \cdot 1500}{1000} = 103 \text{ m/daq}$$

6. Kesish kuchi  $P_z$  ni quyidagi formuladan hisoblab topamiz:

$$P_z = 10 \cdot C_p \cdot t^x \cdot S^y \cdot v^n \cdot K_p$$

Mavjud ishlov berish sharoiti uchun:

$$C_p = 300, x = 1, y = 0.75, n = -0.15 \text{ ([3], 2.24-j, 50-b)}$$

Kesish kuchidagi to'g'rilash koeffitsienti

$$K_p=0.55$$

$$P_z=10 \cdot 300 \cdot 1.5^1 \cdot 0.5^{0.75} \cdot 103^{-0.15} \cdot 0.55=733 \text{ N}$$

7. Kesish uchun sarflangan quvvat:

$$N_{kes} = \frac{P_z \cdot V_{xaq}}{60 \cdot 1020}; \text{ kVt}$$

$$N_{kes} = \frac{733 \cdot 103}{60 \cdot 1020} = 1.24 \text{ kVt}$$

8. Dastgoh yuritmasi quvvati yetarli ekanligini tekshiramiz:

$$N_{shp} = N_d \cdot \eta = 14 \cdot 0.75 = 10.5 \text{ kvt};$$

$N_{kes} \leq N_{shp}$ ,  $1.24 \leq 10.5$ , yani ishlov berish mumkin.

9. Asosiy vaqtni hisoblaymiz.

$$T_a = \frac{L \cdot i}{n \cdot S}$$

Keskichni ishchi yurish uzunligi  $L=l+y+\Delta$ , bu yerda:  $y=1$  mm keskichni botishi,  $\Delta=2$  mm keskichni chiqishi,  $l=90$ ,  $i=$  o'tishlar soni,  $L=90+1+2=93$  mm

$$T_a = \frac{93 \cdot 1}{1500 \cdot 0.5} = 0.12 \text{ daq}$$

**3-o'tish.** D yuzani  $\varnothing 20.6$  mm,  $l=90$  mm uzunlikni ushlab toza yo'nilsin.

Ishlov berishga qoldirilgan qo'yim miqdori  $h=0.7$  mm.

Kesuvchi asbob : o'tuvchi keskichi , kesuvchi qismi materiyali T15K6, keskich tanasi materiyali Polat 40, ko'ndalang kesim yuzasi  $16 \times 25$  mm,  $l=160$  mm

Geometrik elementlari:

$$\gamma = 10^0; \alpha = 12^0; \lambda = 0, \varphi = 45^0, \varphi_1 = 45^0, r=1 \text{ mm}$$

Kesish maromini belgilaymiz.

1. Kesish chuqurligini belgilaymiz.  $t=h=0.7$  mm.

2. Surish qiymatini aniqlaymiz.

$$S_o=0.4-0.5 \text{ mm/ayl. ([3], 2.13-j, 42-b)}$$

Dastgoh pasporti bo'yicha korektirovkalab  $S_o=0.5$  mm/ayl ni qabul qilamiz.

3. Kesishda asosiy harakat tezligini aniqlaymiz.

$$v = \frac{C_v}{T^m \cdot t^x \cdot S^y} \cdot K_v$$

T-keskich turg'unlik davri, T=30...60 daqiqa ([3], 46-b)

T=60 daqiqa qabul qilamiz

Formuladagi koeffitsentlar va daraja ko'rsatkichlarini yozib olamiz.

$C_v=350$ ,  $x=0.15$ ,  $y=0.35$ ,  $m=0.20$  ([3], 2.19-j, 46-b)

To'g'rilash koeffitsientlarini e'tiborga olamiz.

$$K_v=1.125$$

$$V = \frac{350}{60^{0.20} \cdot 0.7^{0.15} \cdot 0.5^{0.35}} \cdot 1.125 = 233 \text{ m/daq}$$

4.Shpindelni aylanishlar chastotasini hisoblaymiz.

$$n = \frac{1000V}{\pi D} = \frac{1000 \cdot 233}{3.14 \cdot 20.6} = 3606 \text{ daq}^{-1}$$

Dastgoh pasporti bo'yicha korektirovka qilib xaqiqiy aylanishlar chastotasi  $n=1500 \text{ daq}^{-1}$  ni qabul qilamiz.

5.Kesish jarayonida asosiy harakatning haqiqiy tezligi:

$$V_{xaq} = \frac{\pi D n}{1000} = \frac{3.14 \cdot 20.6 \cdot 1500}{1000} = 97 \text{ m/daq}$$

6. Kesish kuchi  $P_z$  ni quyidagi formuladan hisoblab topamiz:

$$P_z = 10 \cdot C_p \cdot t^x \cdot S^y \cdot v^n \cdot K_p$$

Mavjud ishlov berish sharoiti uchun:

$C_p=300$ ,  $x=1$ ,  $y=0.75$ ,  $n=-0.15$  ([3], 2.24-j, 50-b)

Kesish kuchidagi to'g'rilash koeffitsienti

$$K_p=0.55$$

$$P_z = 10 \cdot 300 \cdot 0.7^1 \cdot 0.5^{0.75} \cdot 97^{-0.15} \cdot 0.55 = 345 \text{ N}$$

7.Kesish uchun sarflangan quvvat:

$$N_{kes} = \frac{P_z \cdot V_{xaq}}{60 \cdot 1020}; \text{ kVt}$$



$$N_{kes} = \frac{345 \cdot 97}{60 \cdot 1020} = 0.54 kVt$$

8. Dastgoh yuritmasi quvvati yetarli ekanligini tekshiramiz:

$$N_{shp} = N_d \cdot \eta = 14 \cdot 0.75 = 10.5 \text{ kvt};$$

$N_{kes} \leq N_{shp}$ ,  $0.54 \leq 10.5$ , yani ishlov berish mumkin.

9. Asosiy vaqtni hisoblaymiz.

$$T_a = \frac{L \cdot i}{n \cdot S}$$

Keskichni ishchi yurish uzunligi  $L = l + y + \Delta$ , bu yerda:  $y = 1$  mm keskichni botishi,  $\Delta = 2$  mm keskichni chiqishi,  $l = 90$ ,  $i = 1$  o'tishlar soni,  $L = 90 + 1 + 2 = 93$  mm

$$T_a = \frac{93 \cdot 1}{1500 \cdot 0.5} = 0.12 \text{ daq}$$

## 010. Vertikal Frezalash operatsiyasi

**1-otish.** C yuzada  $t = 5$  mm,  $l = 16$  mm,  $b = 7$  mm o'lchamni ushlab G shponka uyasi frezalansin.

Dastgoh 6H12ПБ vertikal frezalash dastgohi.

Kesuvchi asbob barmoq freza  $D = 5$  mm, GOST 17026-71. Kesuvchi qismi materiali P6M5, tishlar soni  $z = 4$  ta;

1. Kesish chuqurligi va frezalash enini aniqlaymiz.

2.  $t = 5$  mm

2. Surish miqdori

$$S_z = 0.08 - 0.05 \text{ mm/ayl} \quad ([3], 2.80-j, 88-b) \text{ (Disk freza uchun (2.79-j, 87-b))}$$

$$S_z = 0.05 \text{ qabul qilamiz}$$

3. Kesishdagi asosiy harakat tezligini aniqlaymiz (m/daq)

$$v = \frac{C_v D^q}{T^m t^x \cdot S_z^y B^u z^p} \cdot K_v;$$

$T$  – frezani turg'unlik davri,  $T = 80$  daq ([3], 2.85-j, 93-b)

$K_v$  - To'g'rilash koeffitsienti

$$K_v = 1.22$$

Formuladagi koeffitsentlar va daraja ko'rsatkichlarini yozib olamiz

$C_v = 145$  ,  $q = 0.44$ ,  $x = 0.24$  ,  $y = 0.26$  ,  $u = 0.1$  ,  $p = 0.1$  ,  $m = 0.37$  ([3], 2.84-j, 90-b)

$$v = \frac{145 \cdot 5^{0.44}}{80^{0.37} \cdot 5^{0.24} \cdot 0.05^{0.26} \cdot 7^{0.1} \cdot 4^{0.1}} \cdot 1.22 = 75 \text{ m/daq}$$

4. Shpindel aylanishlar chastotasini aniqlaymiz.

$$n = \frac{1000V}{\pi D} = \frac{1000 \cdot 75}{3.14 \cdot 5} = 4797 \text{ ayl/daq}$$

Dastgoh pasporti bo'yicha aylanishlar chastotasini korektirovka qilib  $n = 3150$  ayl/daq qabul qilamiz.

5. Kesish jarayonida asosiy harakatning xaqiqiy tezligi:

$$V_{xaq} = \frac{\pi D n}{1000}$$

$$V_{xaq} = \frac{3.14 \cdot 5 \cdot 3150}{1000} = 49$$

6. Tishlar bo'yicha surish tezligi

$$S_M = S_z \cdot z \cdot n = 0.05 \cdot 4 \cdot 3150 = 630$$

Dastgoh pasportidan  $S_M = 630$  mm/daq qabul qilamiz.

$$\text{U xolda } S_z = \frac{S_M}{z \cdot n} = 0.05$$

7. Kesish jarayonida ta'sir etayotgan kuch:

$$P_z = \frac{10 C_p t^x s^y B^u z}{D^q n^w} K_{mp};$$

$K_{mp}$ - to'g'rilash koeffitsenti:

$$K_{mp} = 0.93$$

$$C_p = 68.2 \text{ , } x = 0.6 \text{ , } y = 0.72 \text{ , } n = 1 \text{ , } q = 0.86 \text{ , } w = 0 \text{ ([3],$$

2.86-j, 94-b)

$$P_z = \frac{10 \cdot 68.2 \cdot 5^{0.6} \cdot 0.05^{0.72} \cdot 1.8^1 \cdot 4}{5^{0.86} \cdot 3150^0} \cdot 0.93 = 1478;$$

8. Kesishdagi quvvat :

$$N_e = \frac{P_z \cdot v}{1020 \cdot 60} \text{ kVt};$$

$$N_e = \frac{1478 \cdot 49}{1020 \cdot 60} = 1.19 \text{ kVt};$$

Dastgoh quvvati bo'yicha solishtiramiz

$$N_{shp} = N_d \cdot \mu = 10 \cdot 0,85 = 8,5 \text{ kVt}.$$

$$1.19 \leq 8,5$$

Demak ishlov berish mumkin.

9. Asosiy vaqt:

$$T_{as} = \frac{L}{S_M}$$

$$L = l + y + \Delta$$

$$l = 5 \text{ mm},$$

$$y = 0,5 \left( D - \sqrt{D^2 - B^2} \right) = 0,5 \left( 5 - \sqrt{5^2 - 5^2} \right) = 2,5 \text{ mm}$$

$\Delta = 1 \dots 5 \text{ mm}$ .  $\Delta = 3 \text{ mm}$  qabul qilamiz.

$$T_{as} = \frac{21,5}{630} = 0,03 \text{ daq}$$

### 015. Vertikal Frezalash operatsiyasi

1-**otish**. E1 yuza  $t=2,5 \text{ mm}$ ,  $l=31 \text{ mm}$ ,  $b=20 \text{ mm}$  o'lchamni ushlab frezalansin.

Dastgoh 6H12ПБ vertikal frezalash dastgohi.

Kesuvchi asbob barmoq freza  $D=20 \text{ mm}$ , GOST 17026-71. Kesuvchi qismi material P6M5, tishlar soni  $z=4$  ta;

1. Kesish chuqurligi va frezalash enini aniqlaymiz.

2.  $t=2,5 \text{ mm}$

2. Surish miqdori

$$S_z = 0,08 - 0,05 \text{ mm/ayl} \quad ([3], 2.80-j, 88-b) \text{ (Disk freza uchun ( 2.79-j, 87-b))}$$

$$S_z = 0,05 \text{ qabul qilamiz}$$

3. Kesishdagi asosiy harakat tezligini aniqlaymiz (m/daq)

$$v = \frac{C_v D^q}{T^m t^x \cdot S_z^y B^u z^p} \cdot K_v ;$$

T –frezani turg'unlik davri, T=80 daq ([3], 2.85-j, 93-b)

$K_v$  - To'g'rilash koeffitsienti

$$K_v = 1.22$$

Formuladagi koeffitsentlar va daraja ko'rsatkichlarini yozib olamiz

$C_v = 145$  ,  $q = 0.44$ ,  $x = 0.24$  ,  $y = 0.26$  ,  $u = 0.1$  ,  $p = 0.1$  ,  $m = 0.37$  ([3], 2.84-j, 90-b)

$$v = \frac{145 \cdot 20^{0.44}}{80^{0.37} \cdot 2.5^{0.24} \cdot 0.05^{0.26} \cdot 20^{0.1} \cdot 4^{0.1}} \cdot 1.22 = 147 \text{ m/daq}$$

4. Shpindel aylanishlar chastotasini aniqlaymiz.

$$n = \frac{1000V}{\pi D} = \frac{1000 \cdot 147}{3.14 \cdot 20} = 2347 \text{ ayl/daq}$$

Dastgoh pasporti bo'yicha aylanishlar chastotasini korektirovka qilib  $n = 2500$  ayl/daq qabul qilamiz.

5. Kesish jarayonida asosiy harakatning xaqiqiy tezligi:

$$V_{xaq} = \frac{\pi D n}{1000}$$

$$V_{xaq} = \frac{3.14 \cdot 20 \cdot 2500}{1000} = 157$$

6. Tishlar bo'yicha surish tezligi

$$S_M = S_z \cdot z \cdot n = 0.05 \cdot 4 \cdot 2500 = 500$$

Dastgoh pasportidan  $S_M = 630$  mm/daq qabul qilamiz.

$$\text{U xolda } S_z = \frac{S_M}{z \cdot n} = 0.08$$

7. Kesish jarayonida ta'sir etayotgan kuch:

$$P_z = \frac{10 C_p t^x s^y B^u z}{D^q n^w} K_{mp} ;$$

$K_{mp}$  - to'g'rilash koeffitsienti:

$$K_{mp} = 0.93$$

$$C_p = 68.2, \quad x = 0.6, \quad y = 0.72, \quad n = 1, \quad q = 0.86, \quad w = 0 \quad ([3],$$

2.86-j, 94-b)

$$P_z = \frac{10 \cdot 68.2 \cdot 2.5^{0.6} \cdot 0.05^{0.72} \cdot 20^1 \cdot 4}{20^{0.86} \cdot 2500^0} \cdot 0.93 = 1005;$$

8. Kesishdagi quvvat :

$$N_e = \frac{P_z \cdot v}{1020 \cdot 60} \text{ kVt};$$

$$N_e = \frac{1005 \cdot 157}{1020 \cdot 60} = 2.6 \text{ kVt};$$

Dastgoh quvvati bo'yicha solishtiramiz

$$N_{shp} = N_d \cdot \mu = 10 \cdot 0.85 = 8.5 \text{ kVt}.$$

$$2.6 \leq 8.5$$

Demak ishlov berish mumkin.

9. Asosiy vaqt:

$$T_{as} = \frac{L}{S_M}$$

$$L = l + y + \Delta$$

$$l = 31 \text{ mm},$$

$$y = 0.5 \left( D - \sqrt{D^2 - B^2} \right) = 0.5 \left( 20 - \sqrt{20^2 - 20^2} \right) = 10 \text{ mm}$$

$\Delta = 1 \dots 5 \text{ mm}$ .  $\Delta = 3 \text{ mm}$  qabul qilamiz.

$$T_{as} = \frac{44}{2500} = 0.055 \text{ daq}$$

2- o'tish qiymatlari 1- o'tish qiymatlariga teng deb olinsin.

## 020. Parmalash operatsiyasi

1-o'tish. E yuzada  $\varnothing 12 \text{ mm}$ ,  $l = 15 \text{ mm}$  uzunlikni ushlab F teshik ochilsin.

Kesuvchi asbob va uning geometrik parametrlari: Spiral parma  $D = 12 \text{ mm}$ , kesuvchi qism materiali, tezkesar po'lat P6M5. Geometrik o'lchamlari

$$2\varphi = 118^\circ; \quad 2\varphi_0 = 70^\circ; \quad \psi = 30^\circ; \quad \alpha = 11^\circ \quad ([4] \text{ 203 bet, 44 jad})$$

1. Kesish chuqurligini belgilaymiz.

$$t = D/2 = 12/2 = 6 \text{ mm}.$$

2. Surish qiymatini aniqlaymiz.

$$S_o=0.25-0.28\text{mm/min.} \quad ([3], 2.38\text{-j, } 62\text{-b})$$

Dastgoh pasporti bo'yicha korektirovkalab  $S_o=0.25$  mm/min ni qabul qilamiz.

3. Parmani turg'unlik davrini aniqlaymiz.

$$T=45 \text{ daqiqa qabul qilamiz.} \quad ([3], 2.43\text{-j, } 66\text{-b})$$

4. Kesishda asosiy harakatni tezligini aniqlaymiz.

$$v = \frac{C_v \cdot D^q}{T^m \cdot S^y} \cdot K_v \quad \text{m/daq}$$

Formuladagi koeffitsentlar va daraja ko'rsatkichlarni yozib olamiz.

$$C_v=9.8, q=0.40, y=0.50, m=0.20 \quad ([3], 2.41\text{-j, } 64\text{-b})$$

To'g'rilash koeffitsentini topamiz.

$$K_v=K_{mv} \cdot K_{uv} \cdot K_{lv}$$

$K_{mv}$ - ishlov berilayotgan materialni xisobga oluvchi koeffitsent;

$$K_{mv} = K_{\Gamma} \left( \frac{750}{\sigma_B} \right)^{n_v} \quad ([3], 2.1\text{-j, } 34\text{-b})$$

$$n_v=-0.9; K_{\Gamma}=1 \quad ([3], 2.2\text{-j, } 35\text{-b})$$

$$K_{mv} = 1 \cdot \left( \frac{750}{598} \right)^{-0.9} = 1.22$$

$K_{uv}$ - Kesuvchi asbob kesuvchi qismi materialini xisobga oluvchi koeffitsient;

$$K_{uv} = 1 \quad ([3], 2.6\text{-j, } 37\text{-b})$$

$K_{lv}$ - Teshik uzunligini xisobga oluvchi koeffitsient

$$K_{lv}=1 \quad ([3], 2.44\text{-j, } 67\text{-b})$$

$$K_v=1.22 \cdot 1 \cdot 1=1.22$$

$$V = \frac{9.8 \cdot 12^{0.4}}{45^{0.2} \cdot 0.2^{0.5}} \cdot 1.22 = 30 \text{ m/daq}$$

5. Shpindelni aylanishlar chastotasini hisoblaymiz.

$$n = \frac{1000V}{\pi D} = \frac{1000 \cdot 13.1}{3.14 \cdot 12} = 800 \text{ daq}^{-1}$$

